Aksiz solig'i amaliyotining genezisi, milliy xususiyatlari, turlari va vazifalarining nazariy jihatlarini	1225
Shodiyev Olimjon Abduraxmonovich	
Iqtisodiyotning real sektor tushunchasi, uning tarkibi va iqtisodiyotdagi ahamiyati	1230
Mahmudov Nurali Komilovich	
Korporativ moliya tizimini rivojlantirishda raqamli moliya vositalari va texnologiyalarning integratsiyasi	1241
Xalbekov Ozodbek Xudoykulovich	
The influence of tour interpretation on perceived heritage values: a comparative analysis of tourists with and without guided interpretation at a heritage destination	1245
Shokhnigorbegim Juraeva	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida aloqa xizmatlarini rivojlantirish va samaradorligini oshirishning metodologik asoslarini takomillashtirish	1252
Xazratov Abror Panjiyevich	
Madaniy meros obyektlari asosida barqaror turizmni rivojlantirish strategiyalari	1257
Abriev Zoirjon	
Пути инновационного развития национальной экономики	1262
Жураев Тошболта Тухтаевич	
Hududlarda turizmni rivojlantirishda to'siqsiz, barqaror turizmni tashkil etish zarurati	1267
Jo'rayeva Nargiza Abduvohidovna	
Application of ifrs in budgetary accounting	1272
G. Djambakieva	
Transport xizmatlari sektorining rivojlanishini statistik tahlili: xorazm viloyati misolida	1276
Raximov Alisher Ibragimovich	
O'zbekistonda 2024-yil davomida yirik soliq to'lovchilarni soliq ma'murchiligi tahlili	1281
Xushatov Nuriddin Maxmatqulovich	
Zamonaviy ta'lim sifatini baholashning nazariy-metodologik asoslari	1288
Rahimova Qutlibika Ergashevna	
Chakana va ulgurji savdo korxonalari faoliyatini rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni baholash	1293
Yuldasheva Gulmira	
Zamonaviy axborot tizimlari orqali soliq qarzдорligini undirish mexanizmining takomillashtirish yo'llari	1296
Maxmadustov Jalol Maxmadustovich	
Hududlarda pillachilikni rivojlantirishning huquqiy asoslari va imkoniyatlari	1303
G'oziyeva Aziza Abdusalomovna	
Korxonaning investitsion jozibadorligi oshirish yo'llari	1313
Axtamova Parizod Oybek qizi	
Raqamli texnologiyalar yordamida inklyuziv ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari	1319
Adilova Zulfiya Djavdatovna, Shoev Alim Xalmuratovich	



Yog' – moy sanoati korxonalarida soliqlar hisobi va auditi jarayonlarida tahliliy amallardan foydalanish samaradorligini oshirish.....	1327
A'zamova Aziza Olimjon qizi	
Qurilish materiallari ishlab chiqarish faoliyati iqtisodiy samaradorligini oshirishning xorij tajribasi.....	1334
Umirova Gulmira Shodiboy qizi	
Xalqaro moliya-kredit institutlar bilan hamkorlikning iqtisodiy-huquqiy asoslari	1343
Qosimov Bobur Sobirovich	
Iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda yengil sanoat eksporti diversifikatsiyasining roli va yo'nalishlari.....	1347
Otamurodov Shavkat Nusratillayevich, Eshqulova Nasiba Normo'minovna	
Система раннего предупреждения о снижении финансовой устойчивости предприятия на основе ключевых показателей эффективности (KPI).....	1359
Тажибаева Кизларгул Ажиниязовна	
Soliq tizimida soliq riskini baholash va boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish uslubiyoti.....	1374
Nasimov Ravshanjon Azimovich	
Sanoat korxonalarining innovatsion boshqaruvi tahlili va uning xususiyatlari	1383
Sarimsaqov Doniyor Xomidovich	
Surxondaryo viloyatida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faol korxonalar va tashkilotlar tahlili	1390
Normurodov Alibek Anvar o'g'li	
Mehnat bozori: rivojlanish tendensiyalarining iqtisodiy-statistik tahlili, baholash va istiqbollari.....	1396
Mirzayeva Odina Imomnazar qizi	
Адаптивная модель антикризисных мероприятий, направленных на повышение эффективности управления активами, оптимизацию затрат и реструктуризацию задолженности	1402
Tajibayeva Kizlargul Ajiniyazovna	
Xalqaro va ichki turistik bozorlarda o'zbekistonning turistik mahsulotlarini targ'ib qilish mexanizmi	1409
Mamayusupova Dilovarxon Begmatovna	
Tourism infrastructure constraints and service gaps in uzbekistan's visitor economy.....	1412
Kurolov Maksud Obitovich, Xamidjonova Moxinur Xayrulla qizi	
Основные проблемы перехода на МСФО в республике узбекистане	1419
Махмудов Жамшед Ашрафович	
Binolar loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqishning nazariy va amaliy asoslari.....	1425
Usmonov F.B., Rajabova A.Sh.	
Ayrim ta'lim tizimi bilan bog'liq terminlarning izohli lug'at va etimologik lug'at o'rtasidagi farqi.....	1429
Mahbuba Xoliqova Abdimo'min qizi	
Mahalliy budjet daromadlarini shakllantirishda soliq salohiyatining ahamiyati	1433
Sharipov Narzullo G'ulomovich	
Corpus-based framework of english teaching for competency-oriented curriculum design	1448
Raximova Gulnoza Sharipjanovna	
Masofaviy ta'lim tizimida matematika fanlarni o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari	1454
Ustadjalilova Xurshida Aliyevna	
Texnologik inqilob va mehnat bozorining transformatsiyasi	1459
A'zamova Feruza, Kuldoshev Lazizjon Sharifovich	
Sifat menejmenti tizimini rivojlantirish asosida uy-joy fondlarini boshqarish samaradorligini oshirishning asosiy yo'nalishlari.....	1465
Rasulova Muxabbat Teshabayevna, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	



O'zbekistonda ekologik turizm: yashil iqtisodiyot rivojini tezlashtiruvchi omil.....	1471
Rashidov Saidislom	
Navoiy viloyatida yirik sanoat monopoliyalarini rivojlantirishning tabiiy-iqtisodiy salohiyati ("Qizilqumsement" AJ misolida).....	1474
Savrieva Madina Xakimovna, Xamroyeva Shaxnoza Ibrohim qizi	
Eksport-import operatsiyalarida dolzarb muammolar va yechimlar	1480
Xudayberdiyeva Dilnoza Egamberdiyevna	
Роль международных финансовых центров в мировой экономике	1484
Нуриддинова Мафтуна Жахонгировна	
Measures to enhance the tax mechanism applied to business entities.....	1489
Kudiyarov Kishibay, Aytmuratov Qutlimurat Jalgasovich	
Davlat boshqaruv organlarining xizmat ko'rsatish sohasini samarali tashkil etish orqali kambag'allikni qisqartirish.....	1495
Asrorov Uchqun Akram o'g'li	
The role of green logistics in Uzbekistan and international trends.....	1499
Turakulova Dildora, Ismoilova Diyora	
Hududlarda turizm mahallalarning turistik salohiyatini oshirish usullari (Bog'ibaland turizm mahallasi misolida)	1506
Raxmanov Jasur Ubaydulloyevich	
Human Capital and Artificial Intelligence: Navigating the Future of Work	1511
Hamrokulov Mirabbos, Karimbergan Kariev	
Analysis of green economic growth indicators in uzbekistan.....	1518
Toshboyev Bekzod Bakhtiyorovich	
Toshkent viloyati iqtisodiyotida vino turizmning o'rni.....	1526
Jalilov Shoxjahon Xolbozor o'g'li	
O'zbekiston sharoitida qurilish loyihalari materiallari sarfini tahlil qilish va optimallashtirish va ularni iqtisodiy-matematik modelmodellashtrish	1530
Turayeva Mohinur Asliddinovna	
Auditorlik tekshiruvini rejalashtirishda dasturiy ta'minot va zamonaviy axborot texnologiyalarning o'rni.....	1534
Xodjayevo Mu'tabar Xamidulla qizi, Cho'ponova Gulira'no Doniyor qizi	
Suv tarkibining "wireless waterlight" qurilmasi ishlashiga ta'siri va iqtisodiy samaradorligini matematik model asosida tahlil qilish.....	1540
Kungiratbay Sharipov, Ma'ruf Nurmanov	
Zamonaviy sharoitda dxsh asosida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida xizmatlar ko'rsatishning integratsion jarayonlari.....	1546
Ubaydullayeva Vasila Sadullayevna	
Donni saqlash va qayta ishlash korxonalari biznes jarayonidan olingan chiqindilar hisobini takomillashtirish	1549
Valijonov Xasanboy Akbaraliyevich	
Commercial real estate as a tool for synchronizing economic processes.....	1556
Nastassia Chyhyryna, Siarhei Liashuk, Allayeva Gulchexra Jalgasovna, Khakimdjanova Surayyo Khabibullayevna	
Asalarichilik faoliyatini rivojlantirish bosqichlari va istiqbollari	1563
Shodiyev Murodjon Bakirovich	
Sug'urta kompaniyalari samaradorligini oshirishga qayta sug'urtaning ta'sirini baholash.....	1567
Abirqulova Sohijjamol Normuhammad qizi	
O'zbekistonda yerga mulkchilik munosabatlarini tartibga solishning amaldagi mexanizmi tahlili.....	1572
Abdunazarov Oybek Abdumutalibovich	
«Sirdaryo viloyatida iqtisodiy faoliyatlar natijasida yerlarning degradatsiyasi muammosi: sabablari va yechimlari»	1578
O'ng'arov Hasan G'ayrat o'g'li	



The methodology for using a PM1-PM10 collection device in Uzbekistan is relevant to the climatic conditions	1584
Bakhtiyor Pulatov, Bobur Sadriddinov	
Gullar yetishtirishda iqtisodiy samaradorlikka ta'sir etuvchi omillar: amaliy so'rovnoma asosidagi tahlil	1591
Nurmatova Dilola Dilshod qizi	
Budjet mablag'laridan foydalanishda moliyaviy nazoratning huquqiy asoslarini takomillashtirish	1595
Jurayev Nomoz Tursunpulotovich	
Ishlab chiqarish korxonalari tashkiliy tuzilmasida logistika xizmati samaradorligini oshirish	1601
Maxmidov Shirinboy Botirovich	
Bank xizmatlarini raqamlashtirishning iqtisodiy samaradorlikka ta'siri va jarayonlarni optimallashtirish	1606
Maxsadaliyeva Maftuna Toxir qizi	
The period of emergence of accounting policy and its significance in preparing financial statements	1611
Sayfulloyev Jamshid Qobil o'g'li	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida kompaniyalar boshqaruv darajalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati	1615
To'ychiboyev Nozimjon Soliyevich	
Qishloq hududlarida qayta tiklanuvchi energiya resurslarining iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik jihatdan samaradorligi	1621
Ashurov Azizbek Ergash o'g'li, Janzakov Bekzot Kulmamat o'g'li	
Qurilish korxonalari faoliyatida yashil iqtisodiy infratuzilmani raqamlashtirish	1625
Abdullayev Asliddin Nabi o'g'li	
Sug'urta kompaniyalarining investitsion faoliyatini rivojlantirishning strategik yo'nalishlari	1630
Ostonov Muhiddin Bahriddin o'g'li	
Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash yo'llari	1637
Normetov Bobur Sharifboyevich	
Oliy ta'lim xizmatlari bozorida marketing faoliyatini tashkil etish va amalda rivojlantirish asoslari	1642
Yuldashov Isomiddin Sidiqovich	
Iqtisodiy konsentratsiyalarning sog'lom raqobat muhitiga ta'siri	1649
Luqmonov Sharifxon A'zam o'g'li	
O'zbekiston Respublikasi energetika sektorida moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini joriy etishning ahamiyati va istiqbollari	1653
Uralov Temur Boxodir o'g'li	
Raqamli moliyaviy texnologiyalar (FinTech) va ularning gaz sanoatida investitsion boshqaruvga ta'siri	1658
Ergashev Muhibbek Aslam o'g'li	
Mintaqa investitsion jozibadorligini oshirish va unga ta'sir etuvchi omillarni ekonometrik baholash	1663
Bo'riyev Sardor Norovich	
O'zbekistonda xalqaro kasbiy ta'lim dasturlari: yangi imkoniyatlar, global ta'lim va xalqaro mehnat bozori integratsiyasi	1668
Masharipov Farrux O'tkirovich	
Qoraqalpog'iston Respublikasida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini joylashtirish va ixtisoslashtirishda suv resurslaridan samarali foydalanish muammolari	1675
Shixiyev Raxim Muhammedovich	



QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA QISHLOQ XO'JALIGI ISHLAB CHIQRISHINI JOYLASHTIRISH VA IXTISOSLASHTIRISHDA SUV RESURLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH MUAMMOLARI



Shixiyev Raxim Muhammedovich

Qoraqalpoq davlat universiteti dotsenti
ORCID: 0000-0003-2207-9357

Annotatsiya: Ushbu maqolada Qoraqalpog'iston Respublikasida suv resurslaridan samarali foydalanish muammolari, ayniqsa qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini joylashtirish va ixtisoslashtirishdagi o'rnini tahlil qilinadi. Hududlar kesimida suv ta'minoti, iqlim va tuproq xususiyatlari, transport infratuzilmasi hamda davlat siyosatining qishloq xo'jaligi tarmoqlariga ta'siri statistik ma'lumotlar asosida yoritilgan. Shuningdek, yalpi hosil va suv sarfi o'rtasidagi bog'liqlik, dehqonchilik va chorvachilik tarmoqlari bo'yicha ishlab chiqarish ulushi hamda resurslardan foydalanish samaradorligi o'rganilgan. Maqolada mavjud imkoniyatlar va hududiy farqliliklarni hisobga olgan holda, qishloq xo'jaligini hududlar bo'yicha to'g'ri ixtisoslashtirishning ahamiyati asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: Qoraqalpog'iston Respublikasi, suv resurslari, qishloq xo'jaligi, joylashtirish, ixtisoslashtirish, dehqonchilik, chorvachilik, samaradorlik, suv tanqisligi, resurslardan foydalanish.

Abstract: This article examines the issues of efficient use of water resources in the Republic of Karakalpakstan, with a particular focus on the role of water in the placement and specialization of agricultural production. Based on statistical data, the study analyzes regional water supply levels, climate and soil characteristics, transport infrastructure, and the impact of government policy on the agricultural sector. It also investigates the relationship between water usage and gross agricultural output, the production share of crop and livestock sectors, and the overall efficiency of resource utilization. The importance of regional specialization in agriculture, taking into account local conditions and available resources, is substantiated.

Key words: Republic of Karakalpakstan, water resources, agriculture, placement, specialization, crop production, livestock, efficiency, water scarcity, resource utilization.

Аннотация: В данной статье рассматриваются проблемы эффективного использования водных ресурсов в Республике Каракалпакстан, в особенности в размещении и специализации сельскохозяйственного производства. На основе статистических данных проанализированы обеспеченность водой по регионам, климатические и почвенные особенности, транспортная инфраструктура и влияние государственной политики на аграрный сектор. Также исследованы взаимосвязь между объемами водопотребления и валовой продукцией, доля растениеводства и животноводства, а также эффективность использования ресурсов. В статье обоснована важность правильной территориальной специализации сельского хозяйства с учетом существующих возможностей и региональных различий.

Ключевые слова: Республика Каракалпакстан, водные ресурсы, сельское хозяйство, размещение, специализация, растениеводство, животноводство, эффективность, водный дефицит, использование ресурсов.



KIRISH

Hozirgi kunda dunyo miqyosida tabiiy resurslardan samarali foydalanish, ayniqsa suv ta'minoti muammosi global ahamiyat kasb etmoqda. So'nggi yillarda sodir bo'layotgan iqlim o'zgarishlari, aholi sonining ortishi va suvdan tejamkor foydalanishning yo'qligi qishloq xo'jaligi sohasiga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Suv resurslarining cheklanganligi, ayniqsa sug'oriladigan yerlarga ega davlatlar uchun iqtisodiy barqarorlikka tahdid soluvchi asosiy omillardan biriga aylangan. Jahon tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, suv tanqisligi mavjud bo'lgan hududlarda qishloq xo'jaligi sohasini rivojlantirishda to'g'ri tanlangan ekinlar tarkibi va ixtisoslashtirish hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mutaxassislarning fikricha, agar suv resurslarini muhofaza qilish va toza suvga bog'liq ekotizimlarning yo'q qilinishiga qarshi shoshilinch choralar ko'rilmasa, keyingi 25 yil ichida yer yuzidagi oziq-ovqat ishlab chiqarishning yarmidan ortig'i muvaffaqiyatsizlik xavfi ostida qolishi mumkin. Bu holat jahon miqyosida suv inqirozi tez sur'atlar bilan avj olayotgani bilan bog'liq bo'lib, mutaxassislar uni jiddiy ogohlantiruv sifatida ta'kidlamogda¹.

Yalpi mahsulot tarkibi — ya'ni ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar qiymatining o'zaro nisbati — qishloq xo'jaligi subyekti ixtisoslashuv darajasini aniqlashda muhim qo'shimcha tahlil vositasi sifatida xizmat qilishi mumkin. Ushbu strukturaviy tahlil orqali xo'jalik daromadining asosiy qismini shakllantirayotgan mahsulot turlarini aniqlash va ularni xo'jalikning asosiy ixtisoslashuv yo'nalishlari sifatida belgilash mumkin².

Masalan, kam mexanizatsiyalangan ekinlarga xarajatlarning yuqori ulushi ishlab chiqarishning yetakchi yo'nalishlari to'g'risidagi tasavvurni og'dirib yuborishi mumkin. Ayrim ilmiy manbalarda keltirilgan mualliflar fikricha, ishlab chiqarish xarajatlari tarkibi korxonaning ixtisoslashuv darajasini aniqlashda tovar mahsuloti tarkibiga qaraganda yanada ishonchliroq ko'rsatkich hisoblanadi³.

K. P. Obolenskiy ta'kidlashicha, ixtisoslashuv samaradorligini baholovchi mezon va indikatorlar tizimi mazmunan qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining umumiy samaradorlik mezonlari va ko'rsatkichlariga muvofiq keladi⁴.

K. P. Obolenskiyga ko'ra, ixtisoslashuvning samaradorlik mezoni — bu ixtisoslashuv natijasida erishilgan yalpi mahsulot va yalpi daromad hajmining ortishi bilan jonli va moddiy shakldagi mehnat xarajatlarning ko'payishiga bo'lgan nisbati orqali ifodalanadi⁵.

F. S. Ziyatdinov shunday deb yozadi: «Qishloq xo'jaligida asosiy ishlab chiqarish vositasi yer hisoblanadi. Shundan kelib chiqqan holda, undan foydalanish darajasi yoki ko'rsatkichi qishloq xo'jaligi korxonasining ishlashini baholashda bosh mezon bo'lishi lozim»⁶.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda Qoraqalpog'iston Respublikasida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini joylashtirish va ixtisoslashtirish jarayonida suv resurslaridan foydalanish samaradorligini o'rganishga yo'naltirilgan kompleks yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot quyidagi ilmiy-uslubiy asoslar va metodlarga tayandi:

Statistik tahlil usuli — Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha so'nggi yillarga oid rasmiy statistik ma'lumotlar (aholi soni, ekin maydonlari, suv sarfi, yalpi mahsulot hajmi va boshqalar) tahlil qilindi. Tumanlar kesimida taqqoslashlar o'tkazilib, suv resurslari va hosildorlik o'rtasidagi bog'liqlik aniqlashtirildi.

Hududiy farqliliklarni tahlil qilish — respublikaning tabiiy-iqlimiy sharoitlari, suv bilan ta'minlanganlik darajasi va qishloq xo'jaligi tarmoqlarining joylashuvi o'rtasidagi tafovutlar o'rganildi. Hududlar bo'yicha ixtisoslashuv darajasi aniqlanib, ularga ta'sir qiluvchi omillar baholandi.

Strukturaviy tahlil — qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining tarkibiy tuzilmasi (dehqonchilik va chorvachilik) va ularning o'zaro nisbatlari asosida samaradorlik ko'rsatkichlari ishlab chiqildi.

1 https://www.theguardian.com/environment/2024/oct/16/global-water-crisis-food-production-at-risk?utm_source

2 Онищенко А.М. Методология определения специализации сельскохозяйственного производства. //Вопросы экономики. - 2010. - №9, с.40-46.

3 Ковель В.П. Вопросы оценки специализации сельскохозяйственных предприятий. //АПК: экономика, управление. - 2009. - №7

4 Оболенский К.П. Экономическая эффективность сельскохозяйственного производства. Теория и практика. - М.: Экономика, 2014. -159с.

5 Оболенский К.П. Теория и практика специализации сельского хозяйства. Изд. 2-е, перераб. и доп. -М.: Колос, 2015. -192с

6 Зиятдинов Ф.С. Ресурсный потенциал агропромышленного комплекса: анализ, оценка и эффективность использования. - Казань: Изд-во КФЭИ, 2001.-250с



TAHLIL VA NATIJALAR

Qoraqalpog'iston Respublikasi — O'zbekiston Respublikasi tarkibidagi suveren demokratik respublika bo'lib, mamlakatning shimoli-g'arbiy qismida joylashgan. Shimoli-g'arbda Qozog'iston Respublikasi, janubda esa Turkmaniston Respublikasi bilan chegaradosh. Qoraqalpog'iston Respublikasining umumiy yer maydoni O'zbekiston Respublikasining umumiy yer maydonining 37 foizini tashkil etib, 166,6 ming kvadrat kilometrdan iborat. Respublika aholisi 2024-yil holatiga ko'ra 2002,7 ming kishini tashkil qiladi. Shundan shahar aholisi 978,2 ming kishi (48,8 %), qishloq aholisi esa 1024,5 ming kishini (51,2 %) tashkil etadi.

Ushbu tabiiy sharoitlar respublika hududining o'zida ham farqlanishi mumkin. Masalan, Qoraqalpog'iston Respublikasi hududini olib qarganda, uning shimoliy qismida joylashgan tumanlarda bahor fasli janubiy tumanlarga nisbatan 10–15 kunga kechroq boshlanadi, havo harorati esa +4 yoki +5 darajaga past bo'ladi. Aholining yashash zichligi hamda qishloq xo'jaligida mehnat taqsimoti bo'yicha ham katta farqlar mavjud. Hududlarda aholining joylashuviga qarab qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi joylashtirilgan (1-jadval).

1-jadval. Qoraqalpog'iston Respublikasi aholisi va qishloq xo'jaligi ekinlarining joylashishi⁷

№	Tumanlar	Jami aholi (ming kishi)	Shahar aholisi (ming kishi)	Qishloq aholisi (ming kishi)	Qishloq xo'jaligi ekinlari (ga)
1	Nukus sh	339,2	339,2	0,0	251
2	Amudaryo	212,1	54,6	157,5	31 274
3	Beruniy	205,1	72,3	132,8	22 263
4	Bo'zatov	21,9	5,6	16,3	6 563
5	Qorao'zak	54,4	16,4	38,0	24 927
6	Kegeyli	74,8	30,3	44,5	18 263
7	Qo'ng'iro't	136,0	85,9	50,1	27 085
8	Qonliko'l	53,8	13,7	40,1	28 085
9	Mo'ynoq	33,6	14,9	18,7	4 045
10	Nukus	53,9	10,9	43,0	18 932
11	Taxiatosh	76,8	54,8	22,0	6 568
12	Taxtakopir	38,9	16,7	22,2	16 364
13	To'rtko'l	228,8	85,6	143,2	22 180
14	Xo'jayli	128,7	82,0	46,7	16 297
15	Chimboy	115,7	59,3	56,4	28 600
16	Shumanay	58,0	15,1	42,9	19 944
17	Ellikqal'a	171,0	20,9	150,1	22 640
	Qoraqalpog'iston Respublikasi	2 002,7	978,2	1 024,5	314 281

Shuning uchun ham suv resurslarining har bir tomchisidan unumli foydalanish zaruriyatga aylanmoqda. Suv resurslaridan samarali foydalanish — bu qishloq xo'jaligi sohasidagi korxonalar muvaffaqiyatining muhim omilidir. Quyida respublika bo'yicha tumanlar kesimida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga sarflangan suv miqdorining yalpi qishloq xo'jaligi hosiliga nisbatan samaradorligi tahlil qilinadi.

Jadval ma'lumotlariga ko'ra, umumiy hisobda Qoraqalpog'istonda qishloq xo'jaligida 5 273,4 mln m³ suv sarflanib, natijada 17 970,7 mlrd so'm qiymatdagi yalpi qishloq xo'jaligi hosili olingan. Alohida tumanlar kesimida suv sarfi ko'paygan sari yalpi hosil hajmi ham ortishi kuzatiladi. Masalan, Amudaryo tumani eng ko'p — 687,1 mln m³ suv sarflab, hududlar orasida eng yuqori — 3 274,5 mlrd so'm qiymatdagi hosil olgan.

Shu bilan birga, kichik hududlarda suv sarfi nisbatan kam bo'lib, mutanosib ravishda hosil hajmi ham past. Masalan, Nukus shahrida atigi 22,7 mln m³ suv sarflanib, 128,5 mlrd so'mlik hosil olingan (2-jadval).

7 Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

2-jadval. Qoraqalpog'iston Respublikasida qishloq xo'jaligiga sarf qilingan suv miqdori va yalpi hosili o'rtasidagi bog'liklik⁸

Tumanlar	Ishlatilgan suv miqdori mln m ³	Ulushi (foizda)	Jami ekin ekiladigan maydon	Ulushi (foizda)	Q/X yalpi hosili (mlrd so'm)	Ulushi (foizda)
To'rtko'l	496,3	9,4	22180	7,1	1 791,5	10,0
Beruniy	447,2	8,5	22263	7,1	2 290,4	12,7
Ellikqal'a	465,1	8,8	22640	7,2	1 999,7	11,1
Amudaryo	687,1	13,0	31274	10,0	3 274,5	18,2
Taxiatosh	108,8	2,1	6568	2,1	432,0	2,4
Xo'jayli	221,3	4,2	16297	5,2	852,8	4,7
Sho'manoy	318,7	6,0	19944	6,3	747,8	4,2
Qonliko'l	219,2	4,2	28085	8,9	950,7	5,3
Qo'ng'iro't	438,7	8,3	27085	8,6	964,9	5,4
Nukus	272,9	5,2	18932	6,0	572,3	3,2
Kegeyli	360,9	6,8	18263	5,8	586,7	3,3
Bo'zatov	125,6	2,4	6563	2,1	354,9	2,0
Chimboy	343,6	6,5	28600	9,1	1 466,1	8,2
Qorao'zak	368,4	7,0	24927	7,9	660,3	3,7
Taxtakopir	286,0	5,4	16364	5,2	666,1	3,7
Mo'ynoq	91,0	1,7	4045	1,3	231,5	1,3
Nukus sh	22,7	0,4	251	0,1	128,5	0,7
Jami	5273,4	100,0	314281	100,0	17 970,7	100,0


Qoraqalpog'iston Respublikasi iqlimi quruq, keskin kontinental va quyoshli hisoblanadi. Yog'ingarchilik miqdori respublika bo'ylab yildan-yilga sezilarli darajada kamayib bormoqda. O'zgidromet ma'lumotlariga ko'ra, respublika hududida yog'ingarchilik miqdori 80–200 mm ni tashkil qiladi. Qumli cho'l zonalarida esa bu ko'rsatkich sug'oriladigan hududlarga nisbatan ancha past hisoblanadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasining asosiy ekin maydonlari Amudaryo deltasiga to'g'ri keladi. Yer osti suvlaridagi tuz konsentratsiyasi yuqori bo'lib, 12–30 g/l ni tashkil etadi. Bu hududda tuproq va yer osti suvlarining sho'rlanishi muammosi mavjud.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi bergan dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha yalpi ichki mahsulot hajmi joriy narxlarda 45 658,5 mlrd so'mni tashkil qilib, 2024-yilga nisbatan 106,3 % ga oshgan.

Qishloq xo'jaligi sohasi respublikada xalq xo'jaligini xom ashyo bilan, aholining esa oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlovchi eng yirik tarmoqlardan biri hisoblanadi. Mamlakat qishloq xo'jaligi ikkita asosiy tarmoqdan — dehqonchilik va chorvachilikdan iborat. Respublikada jami qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 2024-yilda 17 970,74 mlrd so'mni tashkil etgan.

Qoraqalpog'iston Respublikasida 2024-yilda yalpi ichki mahsulot hajmining 30,8 foizi qishloq xo'jaligi, 22,5 foizi sanoat, 10,7 foizi qurilish va 36 foizi xizmatlar sohasiga to'g'ri kelgan (1-rasm).



1-rasm. QR yalpi hududiy mahsulotining sohalar bo'yicha tarkibi

Qoraqalpog'iston Respublikasining yalpi hududiy mahsuloti tarkibini sohalar bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, respublikada qishloq xo'jaligi sohasi YaHMning uchdan bir qismini egallashi kuzatiladi. Bu esa respublika iqtisodiyoti qishloq xo'jaligi sohasiga yuqori darajada qaram ekanligini ko'rsatadi. Rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida qishloq xo'jaligi ulushi ancha past bo'lib, odatda 2–5 foizdan oshmaydi. Masalan, Ispaniyada bu ko'rsatkich 2,3 %, Fransiya — 1,9 %, Italiya — 1,8 %, Gollandiya — 1,5 %, Germaniya — 0,9 %, Buyuk Britaniya esa — 0,7 % ni tashkil etadi. Ushbu davlatlarda qishloq xo'jaligidan tashqari boshqa tarmoqlarning yuqori darajada rivojlanganligi sababli, bu soha yalpi ichki mahsulotda kichik ulush bilan ishtirok etadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasida qishloq xo'jaligida foydalanish mumkin bo'lgan yerlar suv resurslari tanqisligi sababli to'liq ishga solinmayapti. Bugungi kunda respublikada qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi bilan shug'ullanuvchi yerdan foydalanuvchilarning ixtiyoridagi yer maydoni jami 3 333,1 ming gektarni tashkil etadi (3-jadval). Respublika katta yer maydoniga ega bo'lishiga qaramay, suv resurslarining cheklanganligi tufayli barcha haydaladigan yerlar qishloq xo'jaligi ekinlari bilan to'liq egallanmagan. 2024-yilda respublikada 278 089,6 gektar maydonga qishloq xo'jaligi ekinlari ekilgan bo'lib, bu umumiy haydaladigan yerlarning 67,3 foizini tashkil etadi (3-jadval).

3-jadval. Qoraqalpog'iston Respublikasi tassarrufidagi mavjud bo'lgan yer resurslari (ming gektar)

Ko'rsatkichlar	Gektar	%
Qishloq xo'jaligi yerlari	3333132	100
Shu jumaladan		
Haydaladigan yerlar	413294	12,4
Ko'p yillik o'simliklar	7862	0,2
Pichanzor va yaylovlar	1709775	51,3
Boshqa yerlar	1202201	36,1

Respublikaning umumiy qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 43,6 foizni, chorvachilik mahsulotlarining ulushi esa 56,4 foizni tashkil etgan. So'nggi o'n yil davomida chorvachilik mahsulotlari yetishtirish hajmi dehqonchilik mahsulotlariga nisbatan yuqori bo'lgan (4-jadval).



4-jadval. Qoraqalpog'iston Respublikasi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish tarkibi dinamikasi (mlrd. so'm)

	2022	Foizda	2023	Foizda	2024	Foizda
Qishloq xo'jaligi mahsulotlari	13348,23	100	15212,1	100	16687,02	100
Dehqonchilik mahsulotlari	6486,65	48,6	6918,52	45,5	7280,16	43,6
Chorvachilik mahsulotlari	6861,58	51,4	8293,57	54,5	9406,85	56,4

Statistik tahlillar shuni ko'rsatadiki, respublika qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishda dehqon xo'jaliklarining ulushi alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki 2024-yil davomida respublika bo'ylab barcha qishloq xo'jaligi mahsulotlarining 62,5 foizi, dehqonchilik mahsulotlarining 24,4 foizi, chorvachilik mahsulotlarining esa 91,9 foizi aynan ushbu toifadagi qishloq xo'jaligi subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan (5-jadval).

5-jadval. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishning xo'jalik turlari bo'yicha taqsimlanishi

Xo'jalik turlari	Barcha qishloq xo'jaligi mahsulotlari	Dehqonchilik mahsulotlari	Chorvachilik mahsulotlari
Fermer xo'jaliklari	30,2	62,1	5,6
Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari	62,5	24,4	91,9
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	7,3	13,5	2,5

Qoraqalpog'iston Respublikasida agrar sohada mahsulot yetishtirishda dehqonchilik segmentida fermer xo'jaliklari yetakchilik qilsa, chorvachilik sohasida dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari asosiy ishlab chiqaruvchi hisoblanadi. Qoraqalpog'iston Respublikasi qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini joylashtirish va ixtisoslashtirishda aynan ushbu jihatlarni inobatga olish muhim ahamiyatga ega. Bunday yondashuv respublikaning qaysi hududlarida ishlab chiqarish samarali yo'lga qo'yilganini, qanday qishloq xo'jaligi subyektlari faoliyat yuritayotganini aniqlashga imkon beradi. Shuningdek, ishlab chiqarish sur'ati past bo'lgan hududlarni, ularning asosiy sabablari va muammolarini aniqlash, mavjud resurs va imkoniyatlarni baholash hamda ular asosida to'g'ri rejalashtirish olib borishga zamin yaratadi.

Bu yondashuv, ayniqsa, qaysi hududlarda ishlab chiqarish imkoniyatlari mavjud, qaysi hududlarda esa cheklovlar mavjudligini aniqlashga yordam beradi. Natijada, respublika miqyosida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini optimal tarzda joylashtirish va tumanlarni mavjud salohiyatga muvofiq ravishda ixtisoslashtirish bo'yicha to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkoniyati yaratiladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasida qishloq xo'jaligi yerlarining hududiy joylashuvi nisbatan barqaror bo'lsa-da, ishlab chiqarish bir tekis rivojlanmagan. Bunga asosiy sabab sifatida qishloq xo'jaligi uchun yagona asosiy suv manbai hisoblangan Amudaryo ko'rsatiladi. Respublika hududida suv resurslari bilan ta'minlash darajasi bir xil emasligi tufayli ayrim tumanlarda qishloq xo'jaligi faoliyati rivojlanayotgan bo'lsa, boshqalarida cheklovlarga duch kelinmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Suv resurslaridan samarali foydalanish, suv tejovchi texnologiyalarni keng joriy etish va sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash bugungi kunda O'zbekiston qishloq xo'jaligi hamda umumiy iqtisodiy barqarorligi uchun muhim ahamiyat kasb etmoqda. So'nggi yillarda bu yo'nalishda sezilarli ishlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, suv tanqisligi hanuzgacha jiddiy muammo bo'lib qolmoqda. Ayniqsa, transchegaraviy daryolardagi suv hajmining kamayishi va aholi sonining ortishi fonida bu masalaga ilmiy asoslangan yondashuv zarur. Yangi texnologiyalarni jadal joriy etish hamda resurslardan oqilona foydalanish oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi.



Qoraqalpog'iston Respublikasida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini joylashtirish va ixtisoslashtirishda suv resurslari muhim strategik o'rin egallaydi. Hududlar o'rtasidagi tabiiy-iqlimiy va iqtisodiy farqliliklar qishloq xo'jaligi strategiyasini hududiy xususiyatlarga mos ravishda shakllantirish zarurligini ko'rsatmoqda. Statistik ma'lumotlar suv sarfi bilan yalpi hosil o'rtasida muhim bog'liqlik mavjudligini tasdiqlaydi. Shuningdek, chorvachilikda dehqon xo'jaliklari, dehqonchilikda esa fermer xo'jaliklari yetakchi o'rin egallamoqda.

Qoraqalpog'istonning suvga boy bo'lmagan sharoitida har bir tomchi suvdan oqilona foydalanish nafaqat iqtisodiy samaradorlikni ta'minlash, balki hududda oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash uchun ham muhim omildir. Shu sababli, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini hududiy joylashtirish va ixtisoslashtirish masalalariga kompleks va tizimli yondashuv zarur.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Шихиев Р.М. Цифровая экономика в развитии сельского хозяйства. Экономика и предпринимательство. № 3 (140) 2022 г. Volume 16 Number 3. 323-326 с.
2. Shixiyev R.M. Raqamli iqtisodiyot sharoitida qishloq xo'jaligini rivojlantirishning hozirgi holati. Berdaq nomidagi QDU Axborotnomasi. № 4/1 (55) 2021. 53-56 b.
3. Shixiyev R.M. Qoraqalpog'iston Respublikasi qishloq xo'jaligida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning statistik ko'rsatkichlari tahlili. "Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning statistic tahlilini takomillashtirishning nazariy va uslubiy jihatlari" Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plami Toshkent 27 may 2022 y. 124-127 b.
4. Shixiyev R.M. Qishloq xo'jaligini resurslaridan samarali foydalanishda xorijiy tajribalar. «XXI asr fanlarida nazariy qonuniyatlardan foydalanishning amaliy muammolari va yechimlari» xalqaro ilmiy – amaliy konferensiyasi (Toshkent, 2024- yil 6-8-may) -B. 1239-1242.
5. Онищенко А.М. Методология определения специализации сельскохозяйственного производства. //Вопросы экономики. - 2010.- №9, с.40-46.
6. Ковель В.П. Вопросы оценки специализации сельскохозяйственных предприятий. //АПК: экономика, управление. - 2009. - №7
7. Оболенский К.П. Экономическая эффективность сельскохозяйственного производства. Теория и практика. - М.: Экономика, 2014. -159с.
8. Оболенский К.П. Теория и практика специализации сельского хозяйства. Изд. 2-е, перераб. и доп. -М.: Колос, 2015. -192с
9. Зиятдинов Ф.С. Ресурсный потенциал агропромышленного комплекса: анализ, оценка и эффективность использования. - Казань: Изд-во КФЭИ, 2001.-250с.
10. O Fayziyev, D Aminboyeva. Qishloq xo'jaligida bioresurslar asosida mahsulot yetishtirishning iqtisodiy ahamiyati. Eurasian journal of Law, Finance and Applied Sciences (May 2023). – Tashkent, 2023. – Volume 3. – Issue 5. – P. 164-167 (UIF = 8.3. SJIF = 5.961) (ISSN 2181-2853)
11. Fayziev O., Abdug'anieva S., & Yo'ldoshboev A. (2022). Ishlab chiqarish xarajatlari hisobini yuritishning tashkiliy-iqtisodiy asoslari va xususiyatlari. Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук, 2(6), 79–81. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/EJLFAS/article/view/2387>
12. Fayziyev O.R., Saidov M.H., Abduraxmonova N.I. / Agrar sektorni rivojlantirishda resurslar salohiyatidan foydalanishning hozirgi holati tahlili / Eurasian journal of Law, Finance and Applied Sciences (December 2022). – Tashkent, 2022. – Volume 2. – Issue 13. – P. 275-279 (UIF = 8.3. SJIF = 5.961)



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>